

O‘ZBEKISTONDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY QILISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusalomov Miralisher Uktamboy o‘g‘li

ATB “Hamkorbank” Korporativ anderayting bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning amaldagi holati va uni takomillashtirish masalalari o‘rganilib, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tijorat banklarida MHXS talablari asosida hisobot yuritish, aktivlar va majburiyatlarni baholash, shaffoflikni ta‘minlash hamda hisobni raqamlashtirish mexanizmlari zamonaviy moliyaviy tahlil usullari asosida tahlil qilingan. «Hamkorbank» ATB misolida markaziy apparat va filial darajasida xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritishning samaradorligi o‘rganilib, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlariga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, tijorat banklari, bank aktivlari, hisobot turlari, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil, AT «Hamkorbank».

Kirish

Tijorat banklari O‘zbekiston iqtisodiyotida real sektorni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Ularning moliyaviy hisobotlari xalqaro standartlar asosida yuritilishi nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, tijorat banklari faoliyatida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (MHXS) joriy etish va ularning samarali qo‘llanilishini ta‘minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy moliyaviy hisobot yuritish tizimini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Moliyaviy hisobotlarda aktivlarning qadrsizlanishini to‘g‘ri va aniq baholash, shuningdek, ularning hisobini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Xususan, Activity-Based Costing (ABC) modelini qo‘llash bank aktivlari bilan bog‘liq xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularni yuzaga keltiruvchi faoliyatlarga taqsimlash imkonini beradi. Bu esa, bir tomondan, qaysi aktivlar yuqori daromadlilikka ega ekanini, ikkinchi tomondan esa qadrsizlanish xavfi sababli bankka qo‘shimcha xarajatlar keltirayotganini aniqlashga yordam beradi. Shu asosda ATB “Hamkorbank” rahbariyati aktivlar sifatini oshirish, ularning qadrsizlanishini

kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va yuqori xavfli yo‘nalishlarni qisqartirish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategik qarorlar qabul qilishi mumkin.

Bugungi kunda global moliya bozoridagi o‘zgarishlar, raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi va iqtisodiy barqarorlik talablarining ortishi moliyaviy hisobot metodologiyasini chuqur tahlil qilish hamda uni milliy bank tizimi sharoitiga moslashtirishni talab etmoqda. Shu sababli, Agrobank amaliyotida xalqaro standartlarga muvofiq hisobot yuritish, aktiv va majburiyatlarni to‘g‘ri baholash va ularga oid axborotlarni shaffof taqdim etish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bank aktivlari va majburiyatlarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish bo‘yicha yondashuvlarni ishlab chiqish O‘zbekiston bank sektorining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Tijorat banklari, jumladan Hamkorbank aktivlari tarkibi yildan-yilga murakkablashib bormoqda. Kredit portfeli, investitsiyalar, likvid mablag‘lar va boshqa aktiv turlari hajmining ortishi bilan bir qatorda, ularni xalqaro standartlar bo‘yicha qayta baholash va sifatini nazorat qilish zarurati ham kuchaymoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini samarali joriy etishda aktivlarni aniq faoliyat turlari kesimida baholash muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv bank operatsiyalarini rejalashtirish va nazorat qilishda yuqori samaradorlik beradi hamda aktivlarning sifatini aniqroq belgilash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) va byudjetlashtirish tizimlari MHXS doirasida aktivlarning qadrsizlanishini nazorat qilish, hisobotlarni shaffof yuritish hamda resurslarni oqilona boshqarishda ishonchli vosita sifatida e‘tirof etiladi.

Mavzuning dolzarbligi

Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida aktivlarning qadrsizlanishini o‘z vaqtida aniqlash va ularning hisobini takomillashtirish orqali bank moliyaviy menejmentini mustahkamlash, strategik qarorlar samaradorligini oshirish hamda ko‘rsatkichlarga asoslangan boshqaruvni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi. Xususan, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida belgilanganidek, tijorat banklari faoliyatini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish, shaffoflikni oshirish va investorlar uchun ishonchli moliyaviy axborot taqdim etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Shu asosda, aktivlarning qadrsizlanishini xalqaro standartlar talablari asosida to‘g‘ri baholash va ularning hisobini takomillashtirish nafaqat tijorat banklarining, jumladan ATB “Hamkorbank”ning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga, balki butun milliy moliya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish va ularni amaliyotga to‘liq tatbiq etish jarayoni mamlakat bank tizimining shaffofligi hamda moliyaviy

barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, MHXS talablariga muvofiq hisobotlarni tuzish, moliyaviy ko'rsatkichlarning xalqaro mezonlar asosida taqdim etilishi orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini tezlashtirish mumkin.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Nazariy asoslarni o'rganish – moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS)ning mazmuni, mohiyati va nazariy asoslarini, shuningdek, Basel talablarida belgilangan bank hisoboti va shaffoflikka oid metodologiyalarni tahlil qilish.

- Ilmiy va empirik adabiyotlarni o'rganish – mahalliy va xorijiy tajribalar asosida MHXSni joriy etish, ularning milliy standartlardan farqli jihatlari va amaliy samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy qarashlarni umumlashtirish.

- “Hamkorbank” ATB misolida amaliyotni tahlil qilish – 2020–2024 yillar davomida bankda MHXS asosida yuritilayotgan moliyaviy hisobotlarning tarkibi, tuzilmasi va sifatini, shuningdek, ularning bankning moliyaviy barqarorligi hamda investitsion jozibadorligiga ta'sirini o'rganish.

- Muammolarni aniqlash – MHXSni joriy qilish jarayonidagi cheklovlar, milliy standartlar bilan uyg'unlashtirishdagi kamchiliklar, amaliyotda uchrayotgan metodik muammolar va axborot tizimlari bilan bog'liq to'siqlarni aniqlash.

- Taqqoslama tahlil – xalqaro bank amaliyotida MHXSni qo'llash tajribasini O'zbekiston tijorat banklari, xususan, “Hamkorbank” ATB amaliyoti bilan solishtirish.

Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati jarayonida shakllanadigan moliyaviy hisobot tizimi hamda ularni xalqaro standartlar asosida yuritish va boshqarish mexanizmlaridir. Tadqiqot predmeti esa tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) muvofiqligini ta'minlash, ularni joriy etish va takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy usullari, jumladan, xalqaro hisob va hisobot standartlari, risk asosida baholash metodlari, ichki audit tizimlari, raqamli texnologiyalar (Business Intelligence, Big Data, AI asosida monitoring)ni qo'llash orqali bank hisobotlarining shaffofligini oshirish masalalarini qamrab oladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) va bank nazoratining xalqaro yondashuvlari nuqtayi nazaridan, aktivlarning qadrsizlanishini baholashda xalqaro moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Basel qo'mitasi (Bazel, Shveytsariya) ekspertlari ta'kidlaganidek, bank tizimida aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashda kapital yetarliligi (CAR), likvidlik qamrov koeffitsienti (LCR) va aktivlarning risk darajasi (RWA) kabi

ko'rsatkichlarni integratsiyalashgan tarzda tahlil qilish zarur. Ushbu ko'rsatkichlar bank balansidagi aktivlarning sifatini baholash, ehtimoliy moliyaviy barqarorlik xatarlarini kamaytirish va aktivlar qadrsizlanishini oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, Rose & Hudgins o'zining "*Bank Management and Financial Services*" asarida qadrsizlanishni baholashda faqat an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaslik lozimligini qayd etadi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvolini, ularning aktivlari va majburiyatlari qiymatini hamda moliyaviy natijalarini xalqaro mezonlarga muvofiq ravishda to'g'ri aks ettirishni ta'minlaydi. MHXSning nazariy asoslari moliyaviy axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi hamda investitsion jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MHXSning asosiy g'oyasi — xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ahvoli, aktivlari va majburiyatlari to'g'risida shaffof, ishonchli va xalqaro taqqoslashga yaroqli axborot taqdim etishdir. Shu nuqtai nazardan, bank aktivlarining qadrsizlanishini aniqlash, ularning hisobini yuritish va samaradorligini oshirish masalalari xalqaro standartlarda belgilangan mezonlarga asoslanadi. MHXS nazariy asoslarida bank aktivlari keng qamrovli moliyaviy resurslar sifatida talqin qilinadi. Ular daromad keltirish salohiyati, likvidlik darajasi va risk profili bo'yicha tasniflanadi. Xalqaro adabiyotlarda (Mishkin, 2021; Rose & Hudgins, 2013; Hilton, 2016) bank aktivlarini aniq tasniflash va qayta baholash ularning qadrsizlanishini aniqlash hamda hisobni takomillashtirishning zaruriy sharti sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, kredit portfeli, investitsiyalar va valyuta operatsiyalari kabi yuqori riskli aktivlarda qadrsizlanish ehtimoli yuqoriligi ta'kidlanadi. Shunday qilib, MHXSning nazariy asoslari moliyaviy va operatsion xarajatlarni to'g'ri tasniflash, aktivlarning turli guruhlarini ajratib tahlil qilish va risklarni hisobga olish orqali bank balansining barqarorligini mustahkamlash hamda aktivlar samaradorligini oshirish uchun ilmiy-metodologik asos yaratadi.

Tijorat banklarida Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS)ning ierarxik tuzilmasi



Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) asosida, banklar va boshqa moliya muassasalari o'z faoliyatlarini samarali boshqarish va moliyaviy natijalarini haqqoniy baholash uchun aktivlardan qanday foydalanishlarini ko'rsatib berishlari zarur. Bu jarayonda bank aktivlarining samaradorligi, rentabelligi va ishlatilish darajasi muhim omil bo'lib, ularning to'g'ri tahlili banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi (IASB, 2018). Bank sektori, ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish va inflyatsiyaning ta'siriga qarshi kurashish orqali aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirishga intiladi. Jurayev M. (2017) o'z ilmiy ishida bank aktivlaridan samarali foydalanish jarayonini baholashda xarajatlarni funksional (operatsion, ma'muriy, moliyaviy) va obyekt asosida tahlil qilish usullarini qo'llash zarurligini ta'kidladi. Bu usullar MHXS tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda, banklarning aktivlarni optimal joylashtirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yanada aniqroq ko'rsatib beradi. Xarajatlarning to'g'ri tahlili, shuningdek, xizmat ko'rsatish xarajatlarning kamaytirilishi, operatsion jarayonlarni soddalashtirish hamda rentabellik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga olib keladi. MHXS doirasida bu yondashuv, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga va foydalanuvchilarga ishonchli moliyaviy axborot taqdim etishga xizmat qiladi. Abdullayev A. (2020) esa raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali bank aktivlarining aylanma tezligi va rentabelligini oshirish masalasini o'rgangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy qilish jarayonini tahlil qilish va uni takomillashtirishga oid ilmiy asoslarni o‘rganishdir. Bu maqsadga erishish uchun aralash tadqiqot dizayni (mixed-method design) qo‘llanilib, nazariy va empirik usullar birlashtiriladi. ATB “Hamkorbank” misolida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqlik darajasi, bank tizimining shaffofligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash yo‘nalishidagi amaliy jarayonlar chuqur tahlil qilinadi. Xalqaro va milliy tajribalar asosida bu jarayonlarni samarali amalga oshirishga yordam beradigan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy qilishning amaldagi holati va uning samaradorligini baholash, shuningdek, banklar faoliyatida faoliyatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshiriladi. Aralash tadqiqot dizayni yordamida bank aktivlarining qadrsizlanishini tahlil qilish va ularning hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) to‘liq va izchil joriy etish bankning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi hamda investitsion jozibadorligini ta‘minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. MHXSni joriy etish bo‘yicha chuqur tahlil olib borish orqali bank rahbariyati hisobotlarning shaffoflik darajasi, xalqaro talablarga mosligi hamda investorlar va tartibga soluvchi organlar uchun ishonchligi qanchalik ta‘minlanganini aniqlashi mumkin. Shuningdek, bu jarayon bank moliyaviy boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan optimal qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

1-jadval

ATB “Hamkorbank” da moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining tahlili

Ko‘rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil, IV-chorak	MHXS guruhida
Aktivlar jami	39,971.2	53,068.2	66,699.7	79,403.8	95,655.9	Assets
Majburiyatlar jami	30,625.0	43,562.9	54,402.8	66,977.0	81,943.8	Liabilities
Xususi kapital jami	9,346.1	9,505.3	12,296.9	12,426.8	13,712.1	Equity
- Ustav kapitali	–	–	11,180.2	11,800.0	12,430.1	Share capital
- Taqqsimlanmagan foyda	–	–	455.2	480.0	491.1	Retained earnings
- Zaxira kapitali	–	–	–	790.0	789.3	Other reserves

Manba: bankning IFRS moliyaviy hisobotlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Aktivlarning o'sishi – iqtisodiy o'sishning asosi. 2021–2025 yillar davomida jami aktivlar 39,971.2 mlrd so'mdan 95,655.9 mlrd so'mgacha ko'tarilgan, ya'ni 2,39 baravar o'sish kuzatilgan. Bunday sur'at korxonada resurs bazasi kengaygani, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi oshgani, shuningdek, investitsion faoliyat samarali yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Aktivlarning o'sishi – iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgisi. Moliyaviy nazariyada bu “resurs bazasining kengayishi” sifatida izohlanadi. Ammo aktivlarning hajman o'sishi doim ham rentabellikni kafolatlamaydi. Shu sababli ularning strukturaviy tahlili (aylanma aktivlar, uzoq muddatli aktivlar ulushi) ham muhimdir. Majburiyatlarning yuqori sur'atlarda ortishi – moliyaviy leverage xavfi. Majburiyatlar 2021 yildagi 30,625.0 mlrd so'mdan 2025 yilda 81,943.8 mlrd so'mgacha ko'paygan. Bu 2,67 baravar o'sishni anglatadi, ya'ni aktivlardan ham tezroq o'sish sur'ati kuzatilmoqda.

2-jadval

ATB “Hamkorbank” misolida balansni MHXS va milliy standart bo'yicha solishtirish, (2025 yil 1-chorak, ming so'mda)

Ko'rsatkich	Milliy standart	MHXS	Farq ($\pm$)
Kassadagi naqd pul va to'lov hujjatlari	2 151 091 904	2 173 979 661	+22 887 757
Markaziy bankdagi mablag'lar	670 147 466	1 335 064 766	+664 917 300
Boshqa banklardan olinadigan mablag'lar (sof)	5 835 074 902	6 792 625 471	+957 550 569
Qimmatli qog'ozlar investitsiyasi (sof)	1 280 952 157	709 663 326	-571 288 831
Investitsiyalar (sof)	1 642 712 616	1 479 944 905	-162 767 711
Kredit va lizing operatsiyalari (sof)	59 436 048 199	73 945 801 336	+14 509 753 137

Manba: bankning IFRS moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ATB “Hamkorbank” balansining Milliy standart va MHXS (xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) bo'yicha taqqoslanishi bankning moliyaviy holati va aktivlar tuzilmasidagi muhim tafovutlarni ko'rsatib bermoqda. Avvalo, naqd pul va Markaziy bankdagi mablag'lar xalqaro standartlarda sezilarli darajada ko'proq qayd etilgan. Bu MHXS talablari likvid aktivlarni kengroq qamrab olishini anglatadi. Natijada, xalqaro hisobot investorlarga bankning qisqa muddatli to'lov qobiliyati yuqoriligini ko'rsatadi. Boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardagi mablag'lar ham MHXS

bo'yicha qariyb bir trillion so'mga ko'proq. Bu esa interbank munosabatlarining xalqaro standartlarda yanada to'liq ochib berilishidan dalolat beradi. Milliy standartlar esa ayrim qisqa muddatli resurslarni boshqa moddalarda tasniflaydi. Aksincha, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar Milliy standart bo'yicha ko'proq ko'rsatilgan, MHXSda esa qariyb yarmi qisqartirilgan. Sababi – xalqaro amaliyotda qimmatli qog'ozlar adolatli qiymat asosida baholanadi va ularning xavf darajasi, yo'qotish ehtimoli qat'iyroq hisobga olinadi.

3-jadval

ATB “Hamkorbank” aktivlari dinamikasi va MHXSga o'tishda IT tizimlari talabi

Yil	Jami aktivlar (trln so'm)	Yuqori likvidli aktivlar (naqd, MB mablag'lari)	Kredit portfeli (trln so'm)	MHXSga o'tishda IT talablar
2021	16,2	2,3	12,2	Asosiy hisob tizimlari, milliy standartlarga mos
2022	23,8	2,5	18,5	Kredit risklarini kuzatish dasturlari
2023	19,8	1,6	14,9	ECL (Expected Credit Loss) moduli integratsiyasi
2024	28,9	1,7	22,0	MHXS formatida balans tayyorlash tizimlari
2025 (I- yarim yillik)	32,1	3,4	25,0	Real vaqt rejimida hisobot va data-analitika

Muallif ishlanmasi

2021–2022 yillarda asosan milliy standartlarda ishlagan mutaxassislar xalqaro hisobot tamoyillari bilan tanishtirildi. 2023–2024 yillarda esa malaka oshirish dasturlari, xorijiy ekspertlar ishtirokida seminar va treninglar tashkil etilib, xodimlarning MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash bo'yicha ko'nikmalari mustahkamlandi. 2025 yilning birinchi yarmida esa bank xodimlarining katta qismi xalqaro hisobot standartlari bo'yicha ishlash malakasiga ega bo'lib, bu bankning shaffof moliyaviy hisobotlarini tezkor tayyorlash imkoniyatini yaratdi. Dinamik tahlil shuni ko'rsatadiki, 2021 yilda “Hamkorbank”ning aktivlari 16,2 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 28,9 trln so'mga yetdi, 2025 yilning birinchi yarmida esa 32,1 trln so'mni tashkil etdi. Aktivlarning tarkibida yuqori likvidli va likvidli aktivlar ulushi sezilarli o'sdi, nolikvid aktivlarning hajmi esa kreditlash faoliyatining kengayishi hisobiga oshdi. Bu jarayonlar MHXS talablariga mos ravishda qayd etilishi uchun IT tizimlarning kengaytirilishi va xodimlarning analitik ko'nikmalari zarur bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIF

Mazkur tadqiqotning maqsadi – tijorat banklari, jumladan, ATB “Hamkorbank” misolida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS/IFRS) joriy etishning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda xalqaro standartlarga mos hisobot yuritishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Shu maqsadni amalga oshirish jarayonida qator ilmiy savollarga javob topishga intilindi. Tadqiqot davomida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish muammosi va ularni hisobda qo'llashning nazariy yondashuvlari chuqur o'rganildi. Natijada, MHXSni joriy qilish orqali bank hisobotlarining shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va investorlar uchun ishonchliligi sezilarli darajada ortishi tasdiqlandi. Jumladan, IFRS 9 – Financial Instruments va IFRS 7 – Financial Disclosures kabi standartlar banklarda risklarni hisobga olish, moliyaviy instrumentlarning qadsizlanishini aniqlash hamda to'liq axborot taqdim etishning muhim vositasi sifatida tanlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan ilg'or metodologiyalar – Asset Quality Review (AQR), Expected Credit Loss (ECL) modellari hamda Basel Committee on Banking Supervision (2023) tavsiyalari O'zbekiston bank amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin. Ushbu metodologiyalar orqali moliyaviy aktivlarni baholash, ularning risk darajasini aniqlash va kutilayotgan yo'qotishlarni prognozlash imkoniyati yaratiladi.

ATB “Hamkorbank” misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki. MHXS asosida yuritilgan hisobotlar bankning operatsion samaradorligini oshiradi, chunki hisob-kitoblar tezkor va aniq bo'ladi. moliyaviy axborotlarning xalqaro taqqoslanuvchanligi ta'minlanadi, bu esa xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlaydi. risklarni boshqarish imkoniyatlari kengayadi, chunki MHXS talablariga asoslangan hisobotlarda aktivlar va majburiyatlarning real qiymati aniqroq ko'rsatiladi.

ATB “Hamkorbank” da moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlashtirish uchun quyidagi takliflar beriladi:

-MHXS (IFRS) standartlarini to'liq joriy etish. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish, aktiv va majburiyatlarni MHXS talablari asosida qayta tasniflash zarur. Bu, bir tomondan, balansdagi nomutanosibliklarni aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, xalqaro auditorlar va investorlar uchun hisobotlarning shaffofligini oshiradi.

-Ma'lumotlar bazasini kengaytirish: Mikro-panellar va zarur empirik ma'lumotlarni shakllantirish, bu bankning kredit portfeli va aktivlarining dinamikasini to'g'ri tahlil qilishga imkon beradi.

-Dashboard tizimining kengaytirilishi: Raqamli tizimlar orqali har bir filialning moliyaviy ko'rsatkichlarini tezkor kuzatib borish va kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beruvchi tizimlarni kengaytirish zarur.

-Samaradorlikni oshirish: DEA va SFA metodlarini qo'llash orqali bankning samaradorligini baholash va kredit resurslarini oqilona taqsimlashni ta'minlash kerak.

O'zbekistonda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilishning amaldagi holati, ayniqsa ATB "Hamkorbank" misolida, rivojlanayotgan jarayondir. Biroq, hali ham zarur bo'lgan empirik ma'lumotlar va tizimlar to'liq shakllanmagan. Ularni shakllantirish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash bankning risklarni boshqarish, rezervlar yetarliligini hisoblash va xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlarni taqdim etishda muhim rol o'ynaydi. Bunday chora-tadbirlar orqali bank tizimining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
2. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn|: o'quv qo'llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
3. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
4. Bank for International Settlements. (2021). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Available at: <https://www.bis.org> [Accessed 15 Mar. 2025].
5. Brown, P. and Ilyasova, G. (2020). Liability Reporting in Banks: IFRS Perspective. International Journal of Accounting, 55(2), pp. 45–68.
6. Mishkin, F. S. (2020). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. 12th ed. Pearson Education.